

DAVOLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV: SHIFOKOR VA BEMOR O‘RTASIDAGI MULOQOT SAMARADORLIGI

Xudoyorova Shukrona Azizbek qizi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya: *Shifokor va bemor o‘rtasidagi samarali kommunikatsiya tibbiy jarayonning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ochiq va tushunarli muloqot, faol tinglash, hamdardlik hamda verbal va neverbal signallardan to‘g‘ri foydalanish bemorning davolanish jarayoniga ishonchini oshiradi. Shuningdek, bemorning qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilinishi uning tibbiy tavsiyalarga rioya qilish ehtimolini oshiradi. Ushbu maqolada shifokor va bemor o‘rtasidagi kommunikatsiyaning psixologik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinib, samarali muloqotni ta‘minlash yo‘llari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Shifokor-bemor kommunikatsiyasi, faol tinglash, verbal va neverbal aloqa, ishonch, hamdardlik, tibbiy qaror qabul qilish, samarali muloqot.*

KIRISH

Shifokor va bemor o‘rtasidagi samarali muloqot tibbiy yordam sifatini oshirish va davolash jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri muloqot bemor ishonchini mustahkamlash, davolashga rioya qilish va umumiy sog‘lomlanish jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillar, psixologik yondashuvlarning ahamiyati va ularning klinik natijalarga ta‘siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

ASOSIY QISIM

Tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonida shifokor va bemor o‘rtasida ishonchli munosabat o‘rnatish juda muhimdir. "Adequate Doctor-Patient Communication" nomli tadqiqotda S. Janković quyidagilarni ta’kidlaydi: "Ochiqlik, diqqat bilan tinglash va bemorning fikrlarini hisobga olish natijasida bemorning davolash jarayoniga ishtiroki ortadi". Bu shuni anglatadiki, shifokorning bemor bilan muloqot qilish uslubi uning davolanish jarayoniga ishonch bilan yondashishiga bevosita ta'sir qiladi.

Shifokor bemorni faol tinglashi, tana tili orqali ochiqlikni namoyon qilishi va bemor bilan hamdardlik asosida muloqot olib borishi lozim. Wang Xiao-yan o‘z tadqiqotida shunday deydi: "Shifokorlarning og‘zaki va tana tili orqali uzatilgan axboroti bemorning shifokorga bo‘lgan ishonchini belgilaydi". Bu esa tibbiy jarayonda verbal va neverbal muloqotning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, I. Stepanikova "Patient–Physician Communication" tadqiqotida quyidagilarni ta’kidlaydi: "Shifokorning nafaqat og‘zaki, balki noverbal signallari ham bemor tomonidan seziladi va bu muloqotning samaradorligiga bevosita ta‘sir qiladi". Bu

esa shifokorning bemor bilan o‘zaro aloqasini yaxshilash uchun tana tili, ovoz balandligi va ohangidan to‘g‘ri foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, J. Ha va N. Longnecker "Doctor-Patient Communication: A Review" maqolasida shunday deydi: "Ko‘plab shifokorlar bemor bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini ortiqcha baholaydi va natijada samarali kommunikatsiyaning ahamiyatini kamroq tushunadi" . Bu shuni ko‘rsatadiki, shifokorlarning kommunikativ mahorati doimiy ravishda rivojlantirib borilishi lozim.

J. Weinman "Doctor-Patient Interaction: Psychosocial Aspects" maqolasida shunday deydi: "Bemorlarning davolanish jarayoniga ishonchi ularning shifokor bilan o‘zaro aloqasiga bog‘liq" . Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, shifokor o‘zining kommunikativ ko‘nikmalarini oshirganida bemorlar davolash jarayoniga faolroq yondashadi. Shuningdek, R. McCabe va P. Healey "Miscommunication in Doctor–Patient Communication" tadqiqotida shunday xulosa chiqaradi: "Shifokor bemorning ruhiy holatini tushuna olishi va hissiy ehtiyojlarini hisobga olishi zarur" . Bu esa shifokorning nafaqat tashxis qo‘yish, balki psixologik yondashuv orqali ham bemorning holatini yaxshilash zarurligini anglatadi.

Shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonchli aloqani shakllantirish uchun bemorning hissiy ehtiyojlariga ham e‘tibor qaratish lozim. Marisa Cordella va A. Poiani "Communication Between Doctor and Cancer Patient" tadqiqotida ta‘kidlaydi: "Tibbiy jarayonda shifokorning bemorga hamdardlik bilan yondashishi bemor ruhiy holatining yaxshilanishiga yordam beradi" . Ba‘zi hollarda shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot samarali bo‘lmasligi mumkin. Redulla "Physician-Patient Communication" maqolasida quyidagilarni ta‘kidlaydi: "Ko‘plab shifokorlar bemorlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlarini haddan tashqari yuqori baholaydi" . Bu esa tibbiyot sohasi mutaxassislarining o‘z kommunikatsiya usullarini yaxshilashlari zarurligini ko‘rsatadi.

Tibbiy qaror qabul qilish jarayonida bemorning faol ishtiroki uning sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan ishonchini oshiradi va tavsiya etilgan muolajalarga rioya qilish darajasini yaxshilaydi . Shifokor bemorni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilganda, bemor o‘z sog‘lig‘iga mas‘uliyat bilan yondashadi va davolash rejasini tushunib, unga rioya qiladi. Lehmann va hamkasblari ta‘kidlaganidek, “Shifokor bemorning davolanishga oid qarorlarni qabul qilishdagi ehtiyoj va afzalliklarini inobatga olishi tibbiy natijalarga ijobiy ta‘sir qiladi” . Ushbu nuqtai nazardan qaraganda, qaror qabul qilishda bemorning ishtiroki nafaqat axloqiy masala, balki samarali davolashning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bundan tashqari, Redulla o‘z tadqiqotida shunday deydi: “Bemor o‘z sog‘lig‘i haqida to‘g‘ri ma‘lumotga ega bo‘lsa va unga qaror qabul qilish imkoniyati berilsa, u davolash jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat bildiradi” . Bu esa shifokorlar uchun bemorga ma‘lumot berish va u bilan hamkorlik qilishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Samarali muloqotni ta‘minlash uchun shifokorlar o‘z bemorlari bilan ochiq va tushunarli tilda muloqot qilishlari lozim . Tadqiqotlarga ko‘ra, bemorning ehtiyojlari va tashvishlarini tushunish shifokorlar uchun muhim bo‘lib, bu natijada bemorlarning ishonchini oshirishga xizmat qiladi. McKnight, Price va Geddes ta‘kidlaganidek, “Shifokor va bemor o‘rtasida samarali aloqa bemorning hissiy qo‘llab-quvvatlanishini oshiradi va

stress darajasini pasaytiradi” . Ushbu tamoyilga rioya qilgan holda, shifokorlar nafaqat bemorning fizik salomatligini, balki uning psixologik holatini ham yaxshilashlari mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shifokor va bemor o‘rtasidagi samarali kommunikatsiya tibbiy xizmatning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat bemorning sog‘ayish jarayoniga, balki uning shifokorga bo‘lgan ishonchiga ham bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ochiq va tushunarli muloqot, faol tinglash, hamdardlik bilan yondashish hamda verbal va neverbal signallardan to‘g‘ri foydalanish shifokor va bemor o‘rtasidagi munosabatni yaxshilashga xizmat qiladi. Shifokorlarning kommunikativ ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishlari bemorlarning davolanish jarayonida faol ishtirok etishiga va tavsiya etilgan muolajalarga rioya qilish darajasini oshirishga yordam beradi. Shu boisdan, shifokor va bemor o‘rtasidagi samarali aloqa tibbiy natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillardan biri sifatida qaralishi lozim.